



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



## IKROM OTAMUROD SHE'RIYATIDA MUHABBAT TALQINLARI

**Jumaeva Salima Cho‘yanovna**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alfraganus universiteti.*

*Toshkent, O‘zbekiston.*

[jumayeva@rambler.ru](mailto:jumayeva@rambler.ru)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272045>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Ikrom Otamurod she'riyati zamiridagi muhabbat talqinlari haqida so‘z boradi. Muallif Ikrom Otamurod she'riyati zamirida ifodalangan ishq talqinlariga oid qarashlarini tahlil etgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *she'riyat, shoir, lirika, badiiy obraz, ruhiyat, janr, doston.*

**Аннотация.** В данной статье идёт речь о толкованиях любви, заложенных в поэзии Икрома Отамурода. Автор проанализировал свои взгляды на толкования любви, выраженные в поэзии Икрома Отамурода.

**Ключевые слова:** *поэзия, поэт, лирика, художественный образ, духовность, дух, жанр, поэма.*

**Annotatsion.** *This article discusses interpretations of love underlying Ikrom Otamurod's poetry. The author analyzes perspectives on the depictions of love expressed in his verse.*

**Keywords:** *poetry, poet, lyricism, artistic image, spirituality, genre, epic.*

Odatda badiiy ijod markazida estetik tarbiya turadi. Chunki badiiy asarlar mutolaasi ta'sirida inson o'zligini yanada yaxshiroq anglaydi. Ushbu jarayonda yaratilgan asar mazmunan pishiq, shaklan jozibador bo'lishi tayin. Yana shuningdek, ijodkor o'z tuyg'usini Yaratganga, Vatanga, Yurtga, xalqiga, ota-onasiga, do'stiga nisbatan izhor qilishi ham bor gap. Zero, muhabbat mavzusiga bag'ishlangan she'rlarning umri uzoq va ta'sirli bo'ladi. Chunki unda kishining butun vujudini pokiza va sirli bir his chulg'aydi, tomirlarda toza qon ko'piradi, qalbga oppoq nur kirib keladi. Bu nur tananing butun puchmoqlariga tarqalib, nafsoniy tuyg'ularni quvadi, fikr tetiklashadi. Butun olam ko'ziga benihoya go'zal tuyuladi. Chunki go'zallik ezgulikdir. Vujud esa ardoqli armonlarga to'la. Shoir tuyg'usi, dardlari o'z dardingizga aylanadi. Haqiqiy tuyg'u bilan yo'g'rilgan chinakam she'riyatning ta'sir quvvati ummonga teng bo'ladi. Bugungi muhabbat – ishq mavzuidagi asarlar ana shu ohangda. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida haqiqiy oshiq haqida shunday yozadi: “*Haqiqiy oshiq deb sen bilki, u dard bilan yashaydi; uning tili ham, dili ham, ko'zi ham pok bo'ladi. Ishq uni o'z “men”idan pok qilib, hatto fano o'tiga xashak qilgan bo'ladi, yuzini sariq qilib, dardini yashiradi; ko'zini ariq qilib yosh oqizadi*”[1: 173]. Bundan ko'rinadiki, haqiqiy oshiqning ahvoli dil izhoridan emas, holatidan bilinadi.



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Shoirlar o‘zlarining ishqqa muhtaloligini va ruhiy kechinmalarini so‘zda shunchaki bayon qilmaydi, balki holat tasvirida ko‘rsatadi. Shu ma’noda, taniqli shoir Ikrom Otamurodning ilohiy tuyg‘u – muhabbat – ishq mavzusiga munosabati o‘zgacha: *“Ishq dedim, ishq g‘amin yutdim, Ishqni ruhimga naqsh etdim”*, – deydi “Iztiror” nomli dostonida. Shoir yozadi:

*Dunyo degan makonda men – ishq manzilin izlovchi,  
bul soriga keling yo‘llar, bo‘lib sog‘inch sadosi.  
Dunyo degan makonda men – ishq qo‘ynida bo‘zlovchi,  
ul soriga eling yo‘llar, bo‘lib sog‘inch sadosi. [5: 169].*

Ma’lumki, o‘zgaga intiq odamning butun vujudi quloqqa aylanadi, xayolida faqat uning yodi kezadi, qo‘li qanday yumushda bo‘lmasin, ko‘z oldida kutgani bo‘ladi. Dostonning lirik qahramoni ayni shu holatda. Uning iztirobli holati, ayniqsa, birinchi va uchinchi misralardagi tashbehda yaxshi ochilgan. Lirik qahramon – “men” – *“dunyo degan makonda ishq manzilin izlovchi va ishq qo‘ynida bo‘zlovchi”* oshiq, *“bul soriga keling yo‘llar, ul soriga eling yo‘llar”*, deya sog‘inch sadosi bo‘lib chorlaydi. Ishqqa muhtalo *“kangul”* esa *“sog‘inchga”* suyanadi. Bu holat dostonning keyingi misralarida yana-da aniqlashib, tiniqlashib boradi:

*Bul kanglum sog‘inchga suyanar,  
talpinar sog‘inchga bul kanglum.  
Ishqqa muruvvatini ayanar  
dahri dun tovlanib:  
ming tus,  
ming rangli. [5: 169].*

Ta’kidlash o‘rinliki, Sharq mumtoz she’riyatida muhabbat va ishq talqinlariga asosiy mavzu sifatida e’tibor qaratilgan. Zero, “Ishq – shaydolik. Shaydolikdan o‘zni unutib, yor xayoliga berilish dardi. Shu qayg‘u sharqlik oshiqni ne-ne savdolarga solmagan deysiz? Lekin nima bo‘lganda va nima deyilganda ham ishq – donolik”, deya haqli e’tiroflar keltiradi adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov[3: 21]. O‘sha ne-ne savdolarga giriftor bo‘lmish oshiq – donolik sari eltuvchi yo‘lda nochorlik va chorasizlik manzillarida adashadi, sarson-sargardon bo‘ladi, iztirob chekadi. Ayni holat “Iztiror”da o‘z tajassumini topgan. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘atida ta’kidlanishicha, “iztiror” so‘zi “nochorlik, chorasizlik, ehtiyoj, majburiy” degan ma’nolarni anglatadi [2: 19].

Dostonda shunday satrlarni o‘qiymiz:

*Nazzora aylagin gulim  
Zorliqlardan tilim-tilim,*



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*Bir bora yayrasin dilim*

*Gulgun,*

*gulgun,*

*gulgun-a. [5: 171].*

Oshiqning yor ozoridan, diydorning qaqragan ohidan shikoyat qilib, “*tilim-tilim*” bo‘lgan “*kangul*”ga murojaati tarzida ifodalangan bu misralarda sog‘inch iztirobi va diydor ehtiyoji mujassam. Asarning har bir misrasi fikr va tuyg‘u uyg‘unligiga ega. Lirik qahramon ishqqa muhtaloligi sabab sog‘inch tuyg‘usini boshdan kechirmoqda: *zorliqlardan tilim-tilim* bo‘lgan qalb – *dil* – shirin azob muhabbatning qalbdagi tug‘ilish oniga ishora bo‘lishi bilan birga, hayotdagi ikkinchi umrini, ya’ni ulg‘ayish, komillik yo‘li sari qadam tashlash lahzalarini nazarda tutadi.

Doston nozik ishoralarga to‘yingan, badiiy ifodalarga boy, yaxlit tuyg‘u ohangiga qurilgan she’riy doston. Asarda fikriy izchillik mavjud. Ifoda tiniqligi, falsafiy mushohada teranligi, lirik jo‘shqinlik, qalb harorati, go‘zal tasvir va serjilo til boyligi uni kitobxoniga yanada yaqinlashtiradi. Unda oshiqning hijronu ayriliq damlarida chekkan sog‘inch iztiroblari “*ming tus, ming rangli*” tovlanishlar bilan tarannum etiladi. Dostonda bu holat shu qadar samimiylik bilan tasvirlanganki, bu tuyg‘u kitobxon qalbiga ko‘chib, uni “*kangul*” olamiga asir etadi:

*Sochlaringni o‘par shamol,*

*Qarog‘ingga qo‘nar hilol,*

*Sog‘inchlarim bag‘rida xol –*

*Zulfin,*

*zulfin,*

*zulfin-a. [5: 171].*

Aslida, shoir tilga olgan holat bir onli, bir lahzali, biroq u ifodalagan sog‘inchning qudrati va qamrovi nihoyatda keng va katta. Bu qudrat tuyg‘ular tajallisini chuqur his va aniq tasavvur qilgandagina anglanishi mumkin. Ajabki, oshiq ma’shuqasining sochlarini o‘pguvchi shamoldan, qarog‘iga qo‘ngan hiloldan qizg‘onadi. Sog‘inch iztirobiga cho‘mgan ko‘ngil – *bag‘rida xol – zulfin*, ya’ni halqa misoli o‘raydi, asir etadi.

Shoir tasviridagi oshiq yorining visoliga etishishdan noumid. Shuning uchun oshiq:

*Yovuqdirsan savol qadar,*

*Yiroqdirsan javob qadar,*

*Yuragimni so‘rgan kadar*



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*To‘lqin,  
to‘lqin,  
to‘lqin-a. [5: 171].*

deya nola qiladi. *To‘lqin, to‘lqin, to‘lqin-a* tarzida keluvchi takrorlar oshiq qalbidagi po‘rtanalarga ishora bo‘lib, sog‘inch iztirobini yanada bo‘rttirib tasvirlashga xizmat qiladi.

Deydilarki, oshiqlik zamonida sog‘inch hamisha yo‘lda, hamisha olam kezadi, “*Nihoyasiz cho‘zilgan makon*” uzra olamga sig‘may olam kezadi. “...*ayroliq – cheki yo‘q safar...*” Shundan shoirning sog‘inchga murojaati ham mantiqli:

*Ko‘zlarin tikib yo‘lga,  
chiqarmay dardin tilga,  
nimayki bo‘lsa dilga  
yutib,  
paymon chatnadi. [5: 174].*

deya oh uradi.

Ma’lumki, tabiat bilan jonli olam bir-biriga chambarchas bog‘liq. Tabiatning go‘zal manzaralari inson qalbiga ko‘chirib, uning botinida ajib, nozik tuyg‘ularni yuzaga keltirsa, ruhning qalqishini esa tabiat tajallisidagina ifodalash mumkin. [6: 122]. Chunki borliq tabiatdagi hodisalar, ulardagi manzaralar misoli ko‘zgudek lirik “men”ning ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini ko‘rsatib turadi. [4: 72]. Makonlar to‘ladi..., Makonki, osmonda olachalpoq abr – bulut suzadi, borliq esa yam-yashil Susambildayin. Benihoya go‘zal tashbeh. Shunda oshiq:

*Sabrimning  
sabridan  
siriqar  
sabr... [5: 183].*

deya falsafiy, ayni paytda xalqona xulosaga keladi.

Sabrning bu xildagi oddiy talqini Ikrom Otamurodning xalqona fikrlash va so‘zlash, dunyoga kengroq razm solish va idrok etish, xalq hayotini, uning og‘zaki ijodini yaxshi bilishi bilan izohlanadi. Mana shuning uchun u ayni misralar orqali asarda aytmqochi bo‘lgan fikrning aniq nishonga tegishini, ifodaning jonli va xalqona jaranglashini ta’minlashga e’tibor qaratgan. Yana bir muhim jihat, shoir bu misralar bilan lirik qahramonning qalbidagi kechgan po‘rtanalari, sinovli muhabbatning sabrli daqiqalariga urg‘u beradi. Zero, borliq tabiatdagi hodisalar, ulardagi manzaralar misoli ko‘zgudek lirik “men”ning ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini ko‘rsatib turadi. Chunki botinda hamma narsalar tabiatga ko‘chgan. Ammo mahbusida bu



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



hodisa ro‘y bermaganidan oshiq yana o‘kinadi va:

*Sening bul soriga kelishing qiyin  
mening ul soriga borishim qiyin* [5: 183]. deydi.

Agar shunday bo‘lganda, u (sevgilisi) insonlashardi, ezgulashardi. Ezgu yurak esa hamma narsani qalb ko‘zi bilan ko‘radi va idrok etadi. Asarda oshiq o‘z sevgilisiga shunday iltijo qiladi:

*Dildan tumanlarni hayda,  
dilni sabolar-a burgil.  
Ishqqa eltgin,  
ayt,  
ishq qayda,  
Sog‘inch diydorga etkurgil.* [5: 188].

Bu iltijo umumlashma xarakterga ega bo‘lib, asarda barcha oshiqlar o‘z mahlubini bunday ahvolga solmaslikka va ularni qadrlashga da‘vat qilinmoqda.

“Iztiror”ning o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri – uning jozibasi, kitobxonni o‘ziga mahliyo etishida anglanadi. Avvalo, ijodkor kuchli tafakkur sahibi bo‘lganligi bois muhabbat va sog‘inch mohiyatini teran anglaydi. U yozadi:

*Sog‘inch darsin o‘qidim  
to‘yib,  
sog‘inch tilin o‘rgandim  
bekam.  
Sog‘inch,  
meni erkalab,  
suyib  
diydoringga zor qildi erkam.* [5: 187].

Shoirning armonlarini kitobxon teran his qiladi: *sog‘inch darsin o‘qib, sog‘inch tilin o‘rganguvchi oshiqning “suyguvchi erkam” – mahbubi diydoriga zor bo‘lishi* qalbgaga sim-sim singib, she‘rxon tasavvurida obrazlashadi. Bu tasavvur kishini go‘zallik, ezgulik sarhadlari sari etaklaydi. Asar kishini ezgulikka, go‘zallikka chorlaydi, imon va e‘tiqod haqida o‘ylashga da‘vat etadi. Ularsiz odam va olam yo‘qlikka mahkum bo‘lishiga ishontirishga undaydi. Dostonning ma‘naviy, ma‘rifiy ahamiyati shundadir. Sababi misralarda suratlangan tasvirlar g‘ayritabiiylikdan yiroqda, milliy ruhga yaqinlikda. Shundan kitobxon dili orom oladi, ong tiniqlashada, ruh charchamaydi. Zero, ruhga yaqin bo‘lmagan tasvirlar hech qachon qalbdagi mustahkam naqshlanmaydi.

Asarning badiiyliги chiroyli iboralardagi tuyg‘ular ifodasi bilan belgilanmaydi.



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



Bu kamlik qiladi. Falsafiy tafakkurning manzaralardagi ko‘chimlarda zuhurlanishi, uning qay darajada jonlanishi, insoniylashishi, ularning zamonlashishi bilan belgilanadi. Shoir yozadi:

*Istaklar istagin qirqar har lahza,  
Oyoq ostidan chiqqan nimadir, tayin.  
Qo‘nimsiz,  
lo‘killar vaqt  
marzama-marza...  
Sening bul soriga kelishing qiyin  
mening ul soriga borishim qiyin [5: 183].*

Rivoyat qilishlaricha, muhabbat dardi va ishq otashi shunday kuchli bo‘ladiki, yaqinlashsa, oftobni ham kuydiradi. Uning g‘am shu‘lasi dilni shunday iztirobga soladiki, bunga dosh berolmagan ko‘ngil “oh”chekadi. Bu “oh”dan butun olam yonadi. Bu olovda ishq timsoli lirik “men” ham qaqnus misoli kuyadi. Mana shunday kuyunib-yonishda haqiqiy oshiqlik va ma’shuqlik yuzaga keladi. Bu borada hazrat Alisher Navoiy shunday deydilar: “Ishq degani bu qanday o‘tki, u hujum qilganda, uning tutuni va uchqunlaridan osmon va yulduzlar yaraldi. U tutundan malaklar pashshadek qochdilar. Falak osmonda oddiy bir fonusdek bo‘lib qoldi. U tufayli aql peshonasi qoraydi. Ruh ko‘zidan ham u eshlar oqizdi” [1: 72]. Shuning uchun ham muhabbat – ishqqa oshno bo‘lgan odam tamom boshqa shaxsga aylanadi, ya’ni ezgulashadi. Negaki, sog‘inch – hijron o‘tida qovurilishlari qalbini poklaydi. Buni o‘zi ham his qiladi. Shundan shoir she’riyatida ishq olib kelgan mahbubiga sig‘inishi mantiqlidir:

*Ishq dedim,  
ishq g‘amin yutdim,  
kanglum ahvolini ko‘rgil.  
Ishqni ruhimga naqsh etdim,  
Sog‘inch diydorga etkurgil.  
S-o-g‘-i-n-ch d-i-y-d-o-r-g-a e-t-k-u-r-g-i-l. [5: 189].*

Dostonda asosiy e’tibor tashqi olamga emas, inson botiniy olamiga qaratiladi va lirik she’rga xos unsur etakchilik qiladi. Ayonki, lirika ichki kechinma bilan fikr uyg‘unligining mahsuli hisoblanadi. Shu ma’noda, “Iztiror”da ishq va oshiqlik, visol va sog‘inch iztiroblari tasviri tabiat hodisalari bilan uyg‘un tarzda bayon qilinadi:

*Ne kuy,*



# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*ne o‘y,  
ne suryolar,  
nozligim g‘amzasin yo‘rgil,... [5: 188].*

Buning uchun tashbehldagi o‘ta jumboqliqdan qochib, milliy ruhni kuchaytirish lozim. Lirik qahramonining aql peshopasi qoraymaydi, balki ishq dardidan nurlanadi, ruh ko‘zidan oqqan yoshdan qalb g‘uborlari yuviladi, poklanadi. Bu hissiyotdan holi ilohiy ishqning qudratidir. Asar lirik qahramoni shunday ishqqa muhtalo.

Asarni o‘qish davomida har bir mustaqil tuyg‘ular silsilasi o‘z ifodasini topgan lavhalarda shoir bizga anglatmoqchi bo‘lgan haqiqat oydinlashib boradi. Bu haqiqat muhabbat. Bu yaxlitlik sog‘inchi, unga intilishdir. Qahramon o‘z ko‘ngliga, ruhiga yaqin odamni izlaydi, qumsaydi. . Zero, yaxlitlikda kuch bor, qudrat bor. Shundan lirik “men” yaxlitlikka intiladi. Ikrom Otamurod muhabbatin shunday tushunadi, shunday anglaydi. Bu muhabbatni falsafiy anglashdir. Shu tarzda oshiqning ahvolini go‘zal ishqiy satrlar qa‘riga singdira olgan ijodkorning so‘z qo‘llash va tasvir vositalaridan foydalanish mahorati o‘quvchi ko‘z oldida yorqin namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Ikrom Otamurodning orzumand “*kangul*”ini, ishqqa limmo-lim yuragini, darë qalbini “*Iztiror*” dostonida ko‘rish mumkin. Ohangning mazmunini so‘zlab bo‘lmagani kabi tuyg‘uni ham bayon qilib bo‘lmaydi. Uni his qilish lozim. U his orqali ruhiyatga singadi. Shu boisdan ham shoir tuyg‘ular ummoniga ko‘milgan dardlarini “*Iztiror*” orqali anglatmoq va his qildirmoqni niyatlagan. Demakki, tuyg‘ular ummoniga ko‘milgan, nozik badiiy tashbehlar qamrovidagi mazkur asar uning ruhiyat talqiniga bag‘ishlangan ijod namunalari ichida saralar ichra sarasidir.

### Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. II tom. – T.: Fan.1983.
3. Haqqulov I. G‘azal gulshani. – Toshkent: Fan, 1991. – B.72.
4. Haqqulov I. She‘riyat. Ruhiiy munosabat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.
5. Ikrom Otamurod. Muqaddar: She‘rlar va dostonlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
6. Nazarov B. Istiqloq davri o‘zbek she‘riyatining manzaralari.// Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: Fan, 2006.